

## FARZAND IJTIMOIIY PERSEPSIYASIGA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI

**Shodiyeva Zulfizar Nodirovna**

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti magistranti*

*Ilmiy rahbar: Avezov Olmos Ravshanovich psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(phd, dotsent)*

**Annotatsiya:** *Maqolada farzand ijtimoiy persepsiyasiga oilaviy munosabatlarning ta'siri, oilalarda shaxslararo munosabatlarning nazariy hamda eksperimental-psixologik nuqtai nazardan o'rganildi va oilalarda ota-ona va bola munosabatlarining bolaning rivojlanishiga ta'siri, tarbiya metodlari ko'rib chiqildi.*

**Kalit so'zlar:** *Perseptiv, ijtimoiy persepsiya, yoqtirish hissi, attraksiya, mag'zini chaqib, identifikatsiya, empatiya, stereotipizatsiya, kinesika, proksemika.*

**Аннотация:** *В статье с теоретической и экспериментально-психологической точки зрения изучено влияние семейных отношений на социальное восприятие ребенка, межличностные отношения в семье, а также влияние детско-родительских отношений в семье на развитие ребенка, методы. образования были рассмотрены.*

**Ключевые слова:** *Перцепция, социальное восприятие, симпатия, влечение, мозг, идентификация, эмпатия, стереотипизация, кинесика, проксемика.*

### KIRISH

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgani sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan har qanday munosabatlari, ayniqsa shaxslararo munosabatlar ichida eng eng samimiy, eng yaqin bo'lmish oilaviy munosabatlar ham rivojlanib, takomillashib, murakkablashib bormoqda. Shunday bo'lsada oilaning jamiyatda tutgan o'rnini uning ta'siri hali ham o'z kuchini yo'qotmagan. Chunki har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalar va ularning mustahkamligining o'rnini nihoyatda beqiyosdir. Shunga ko'ra oilaga berilgan quyidagi ta'riflarda uning mazmun mohiyatini yanada chuqurroq anglashimiz mumkin.

Oila insonlardan tashkil topgani va undagi hayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilinishini hisobga oladigan bo'lsak, oilani sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atasa bo'ladi. Har qanday istiqbol, yuksalish oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. [4]

Sababi, har bir shaxs uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha jarayonlarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, chunki faqatgina o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini baxtiyor his qiladi. Oilaga berilgan ushbu ta'riflarning barchasi ma'no mazmun, mohiyatiga ko'ra alohida yondashuvni talab qilishi mumkin, ammo oila to'g'risida fikr yuritish ekanimiz eng


avvalo “oila”, “nikoh” tushunchalaridan oldin paydo bo‘lgan ibtidoiy jamoa davrida insonlarni birlashtirgan to‘da, urug‘, jamoa shakllariga to‘xtalib o‘tish joizdir.

### ASOSIY QISM

Oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimida eng boshlang‘ich nuqta to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolalarni o‘z ichiga olgan ota-ona va bola munosabatlaridir. Ota-ona bola munosabatlarning xorijiy adabiyotlarda tadqiq etilishi, oilada bolaning rivojlanishida kattalarning ta’siri muhimligini ta’kidlaydi. Lekin aynan shu munosabatlarning o‘zi tadqiqotlarning obyekti (L. N. Leontev va boshqalar) bo‘la olmaydi. Sababi ota-ona va bola munosabatlari boshqa munosabatlar kabi bir qancha faktorlar bilan aloqadorlikda o‘rganilishi lozim. Shu bilan bir qatorda klinik psixologlar (A.Ya.Varga, A.S.Spivakovskaya, E.G.Eydemiller va boshqalar) ota-ona va bola munosabatlari sohasida katta tajriba to‘plashgan.

Ota-ona va bolaning o‘zaro munosabatlari, o‘zaro ta’siri, faol o‘zaro ta’sir sifatida tushuniladi, ularda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarida aniq namoyon bo‘ladi. (N.I.Buyanov, A.Ya.Varga, A.I.Zaxarov, O.A.Karabanova, A.G.Liders, I.M.Markovskaya, A.S.Spivakovskaya, T.V.Yakimova va boshqalar)[34]

Psixologiyada ota-ona va bola munosabatlari tushunchasiga katta e’tibor beriladi. Unga ko‘ra “Oila, birlamchi ijtimoiy mikro muhit bo‘lgan holda insonning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.” – deb yozadi V.N.Drujinin o‘z tadqiqotida va inson hayotining birinchi choragini pillaga qiyoslaydi.[21]. Bolaning ota-onasi bilan bo‘lgan munosabati bolaning shaxsiyatiga va shunga mos ravishda uning hayot yo‘lini qurishga katta ta’sir ko‘rsatadi.



### 1-rasm

**O‘zaro munosabatlarning ko‘rinishi:** Xorijiy psixologiyada ota-ona va bola munosabatlarning o‘ziga xosligi an’anaviy ravishda **psixanalitik** (Z.Freyd, E.Erikson, D.Vinnikot, E.Bern va boshqalar), **bixevioristik** (J. Uotson, B. Skinner, A. Bandura va boshqalar) va **gumanistik** (T. Gordon, K. Rojers, J. Bayard, V. Satir va boshqalar) yo‘nalishlar doirasida o‘rganiladi.

E.O. Smirnova, bola va ota-ona munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab, birinchi navbatda, ular bola uchun ham, ota-ona uchun ham kuchli hissiy

ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ikkinchidan, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarda ambivalentlik mavjud. Bu ikkilik bir tomondan, ota-ona bolaga g'amxo'rlik qilishi, ikkinchi tomondan esa bolani o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilishga o'rgatishi kerakligi bilan ifodalanadi.

Ota-ona va bola munosabatlaridagi ambivalentlik tushunchasi E.Erikson tomonidan o'zining epigenetik kontseptsiyasida ko'rsatiladi va Erikson uni, bu bolaning ehtiyojlari uchun shahvoniy tashvishni unga to'liq shaxsiy ishonch hissi bilan birlashtiruvchi va faqat bolaning o'zi o'z tashabbusi bilan ota-onalarning talablari o'rtasida zarur muvozanatni o'rnatuvchi "ikki niyat" deb ataydi.

**M. Arutyunyan** esa oila turlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Unga ko'ra, an'anaviy, bolalarga qaratilgan va (demokratik) uchta variant mavjud.

Demokratik oilada tarbiyaviy ta'sir gorizontali bo'lib, ota-ona va bola manfaatlari tengdir. O'zaro manfaatlar har doim hisobga olinadi va bola qanchalik katta bo'lsa, uning manfaatlari shunchalik ko'p hisobga olinadi. Buning natijasida bolada o'z huquq va burchlari, mas'uliyati, erkinligi to'g'risida uyg'un g'oyalar shakllanadi, faollik, mustaqillik, moslashuvchanlik, xayrixohlik, hissiy barqarorlik va o'ziga bo'lgan ishonch shakllanadi. Biroq, bunday oilalarning bolalari ijtimoiy hayotga bo'ysunish qobiliyatini rivojlantirmasligi mumkin. Biroq, bu muallifning nazariy taxminlari bo'lib, u bunday oilalarni kuzatish mumkinligi haqida gapirmaydi.

Ota-ona va bolaning munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mazmun-mohiyati jihatidan turlicha bo'lib, ota-onaning ta'sir subyekti sifatidagi pozitsiyasidan kelib chiqib quyidagi faktorlar bolaning tarbiyasi, shaxsi va xarakter xususiyatlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalarning shaxsiy xususiyatlari ularning bolaga bo'lgan munosabatlarning tabiatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu pozitsiyani tasdiqlovchi yorqin misol shizofrenogen onaning kontseptsiyasidir (E. Fromm - F. Reichmann, 1948). Shizofrenogen ona - o'z farzandini hissiy jihatdan rad etadigan va shu bilan birga uni qattiq tashvishga soladigan, boshqa odamlarning hayotini nazorat qilish zarurati tufayli bolaning normal rivojlanishiga xalaqit beradigan hukmron ayol. U o'z harakatlarida mukammal bo'lishga intiladi va boshqalardan ham xuddi shunday talab qiladi.

## XULOSA

1. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning ijtimoiy institutlardan biri sanalmish oilani mustahkamlashga bag'ishlangan asarlarida oila va uning mustahkamlovchi omillar ma'naviyat, odob-axloq hamda sog'lom mafkurani shakllantirish bilan bog'lab izohlanadi. Bunday yondashuv psixolog olimlar va tadqiqotchilar uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

2. Oila farovonligi va osoyishtaligi masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog olimlari tomonidan ko'zga

ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologlari tomonidan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo'lmaydi.

3. O'zbekistonda ma'naviyat va ma'naviy axloqiy tarbiya davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va buning negizida jamiyatning dastlabki bo'g'ini bo'lmish oilalarga davlat tomonidan, ayniqsa, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan katta e'tibor berilishi mazkur muammolarni atroflicha va barakali tadqiq uchun shart-sharoit yaratdi. Shuning natijasi o'laroq O'zbekiston olimlari ma'naviyatni ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng asosiy va muhim kategoriyalaridan biri sifatida e'tirof etmoqdalar. Bu kategoriyani tadqiq etishda mamlakatimiz faylasuflari, sotsiologlari, pedagoglari tmonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologiya fanida oqsashlar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arapbayeva D.K, Norkulova N.T.Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari.//Metodik qo'llanma//T.:”GOLD-PRINT NASHR”nashriyoti 2019.-63-68b.
2. Bolaning maktabga psixologik-pedagogik tayyorgarligi: amaliy psixologlar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun qo'llanma.-M.:Insonparvarlik.ed.markaz VLADOS, 20021.-256 b.
3. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psixologiya fanlari doktorligi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Farg'ona. 1994. – 310 b.
4. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 28 b.
5. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. – Toshkent: ”Yangi asr avlodi”, 2005. – 26 b.
6. Karimova V. Oila tafakkur va salomatlik: (Oilada sog'lom turmush tarzini yaratish xususida) //Boshlang'ich ta'lim. – 2005. – № 2. – B.8-11.
7. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalar uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008.- 15b.
8. Karimova V., Akramova F., Xonqulova N. Mustahkam oila mahalla tayanchi – T.: “A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2009. – 58-60 b.
9. Oila, jamiyat, qonun – T.: “O'zbekiston” - O'qituvchi, 2007 – 112 b.
10. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: “Ma'naviyat”, 1998. – 160 b